



**TABIATNI MUHOFAZA QILISH, SOG‘LOMLASHTIRISH VA
REKREATSIYA MAQSADLARIGA MO‘LJALLANGAN YERLARNING
TUSHUNCHASI VA HUQUQIY ASOSLARI.**

Shopo‘latova Gulnora Otabek Qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

magistratura bosqichi talabasi

E-mail: shopolatovagulnora@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlarning mohiyati, ularning turlari hamda huquqiy maqomi yoritilgan. Shuningdek, mazkur yer toifalarining O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinishi, ularni oqilona foydalanish va muhofaza qilishning huquqiy mexanizmlari tahlil qilingan. Maqolada tabiatni asrash, ekologik muvozanatni saqlash, aholining sog‘lom turmush tarzini ta‘minlash hamda rekreatsiya salohiyatidan samarali foydalanishning ahamiyati alohida e‘tirof etilgan.

Kalit so‘zlar: Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish yerlari, rekreatsiya yerlari, yer toifalari, ekologik muvozanat, huquqiy asoslar, yer kodeksi, tabiiy resurslar, atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanish.

**ПОНЯТИЕ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ЗЕМЕЛЬ
ПРИРОДООХРАННОГО, ОЗДОРОВИТЕЛЬНОГО И
РЕКРЕАЦИОННОГО НАЗНАЧЕНИЯ.**

Шопулатова Гулнора Отабек кизи

Студентка магистратуры Ташкентского государственного

юридического университета

E-mail: shopolatovagulnora@gmail.com



Аннотация. В данной статье рассматриваются сущность, виды и правовой статус земель, предназначенных для охраны природы, оздоровления и рекреации. Также анализируется регулирование данных категорий земель на основе Земельного кодекса Республики Узбекистан и других нормативно-правовых актов, а также правовые механизмы их рационального использования и охраны. В статье особое внимание уделяется важности сохранения природы, поддержания экологического баланса, обеспечения здорового образа жизни населения и эффективного использования рекреационного потенциала.

Ключевые слова: Охрана природы, оздоровительные земли, рекреационные земли, категории земель, экологический баланс, правовые основы, Земельный кодекс, природные ресурсы, охрана окружающей среды, устойчивое развитие.

**THE CONCEPT AND LEGAL BASIS OF LANDS INTENDED FOR
NATURE PROTECTION, HEALTH IMPROVEMENT, AND
RECREATION PURPOSES.**

Shopulatova Gulnora Otabek Qizi

Master's Degree Student

Tashkent State University of Law

E-mail: shopulatovagulnora@gmail.com

Abstract. This article explores the essence, types, and legal status of lands designated for nature protection, health improvement, and recreation purposes. It analyzes the regulation of these land categories based on the Land Code of the Republic of Uzbekistan and other normative legal acts, as well as the legal mechanisms for their rational use and protection. The article emphasizes the



importance of preserving nature, maintaining ecological balance, ensuring a healthy lifestyle for the population, and effectively utilizing recreational potential.

Keywords: Nature protection, health improvement lands, recreational lands, land categories, ecological balance, legal basis, Land Code, natural resources, environmental protection, sustainable development.

Kirish

Bugungi kunda global miqyosda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish hamda aholining sog‘lom turmush tarzini ta‘minlash har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini belgilovchi eng muhim omillardan biriga aylandi. Sanoatlashuv va urbanizatsiya jarayonlarining jadallashishi sharoitida tabiiy ekotizimlarni asrash hamda ularning ijtimoiy-ekologik funksiyalarini huquqiy tartibga solish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda “Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”¹gi PQ-76-sonli qarori bilan tasdiqlangan tegishli “Yo‘l xaritasi” ushbu sohadagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Mazkur yo‘l xaritasining 3-bandida *“Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda jarayonlarning tabiiy kechishi monitoringini yuritish, infratuzilmasini shakllantirish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borishning yagona metodikasini ishlab chiqish”* vazifasi qat‘iy belgilangan.

Shu bilan birga, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda barqaror ekotizim yaratish masalalari Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan 2015-yil 25-sentabrda qabul qilingan va global taraqqiyot dasturi hisoblangan Barqaror

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda “Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-76-sonli qarori.



rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals)ning 13-maqсад (Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash) hamda 15-maqсад (Quruqlikdagi ekotizimlarni muhofaza qilish)² talablariga to‘liq uyg‘undir.

Ushbu maqolada yer fondining alohida tarkibiy qismi hisoblangan tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlarning huquqiy tabiati, qonunchilikdagi asoslari hamda ulardan samarali foydalanishning huquqiy mexanizmlari tahliliy doirada tadqiq etiladi.

Asosiy qism va huquqiy tahlil

O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksiga muvofiq, tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar yer fondi tizimining mustaqil va alohida huquqiy rejimga ega bo‘lgan toifasini tashkil etadi. Mazkur yerlar o‘z mohiyatiga ko‘ra muhofaza etiladigan tabiiy hududlar sirasiga kiradi hamda ekologik, ilmiy, madaniy-estetik, rekreatsiya va sanitariya-sog‘lomlashtirish ahamiyatiga ega bo‘lgan ob’ektlar joylashgan er va suv kengliklaridir.

Amaldagi qonunchilikka ko‘ra, ushbu yerlar tizimi moddiy madaniy meros ob’ektlari joylashgan tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlardan aniq huquqiy mezonlar orqali ajratilgan. Yer kodeksining tegishli normalarida ushbu yer toifalari quyidagicha tarkiblangan:

- **Tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar (Yer kodeksining 72-moddasi):** Davlat qo‘riqxonalari, milliy va tabiat bog‘lari, buyurtma qo‘riqxonalari, tabiat yodgorliklariga qonunchilikda belgilangan

² <https://sdgs.un.org/goals>



tartibda jismoniy va yuridik shaxslarga tabiatni muhofaza qilish maqsadlari uchun beriladigan yerlar.

• **Sogʻlomlashtirish maqsadlariga moʻljallangan yerlar (Yer kodeksining 73-moddasi):** Kasalliklarning oldini olish va davolash uchun xizmat qiladigan, oʻzida tabiiy shifobaxsh omillar (mineral suvlar, shifobaxsh balchiqlar, iqlim sharoitlari va h.k.)ni mujassam etgan hamda tegishli tartibda berilgan yerlar.

• **Rekreatsiya maqsadlariga moʻljallangan yerlar (Yer kodeksining 74-moddasi):** Turizmni tashkil etish, aholining ommaviy dam olishi va madaniy-jismoniy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur geografik hamda iqlim sharoitlariga ega boʻlgan yer maydonlaridir³.

“Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar toʻgʻrisida”⁴gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining normalariga koʻra, mazkur hududlarning davlat muhofazasiga olinadigan alohida toifalari quyidagicha belgilangan: davlat qoʻriqxonalari; majmua (landshaft) buyurtma qoʻriqxonalari; tabiat bogʻlari; davlat tabiat yodgorliklari; ayrim tabiiy obʼektlar va majmualarni saqlab qolish, takror koʻpaytirish va tiklash uchun moʻljallangan hududlar; muhofaza etiladigan landshaftlar; ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun moʻljallangan hududlar.

Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlarning huquqiy asosi esa “Madaniy meros obʼektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish toʻgʻrisida”⁵gi Qonun bilan tartibga solinib, unda moddiy madaniy meros obʼektlari respublika hamda mahalliy ahamiyatdagi toifalarga ajratilishi qayd etilgan.

Davlat boshqaruvi va huquqiy rejimini taʼminlash

³ Oʻzbekiston Respublikasi Yer kodeksi 30.04.1998-yil

⁴ Oʻzbekiston Respublikasining “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar toʻgʻrisida”gi Qonuni, 03.12.2004-y., OʻRQ-710-son.

⁵ Oʻzbekiston Respublikasining “Madaniy meros obʼektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish toʻgʻrisida” Qonuni 30.08.2001 yildagi 269-II-son



O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasi 2-qismiga binoan: *“Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta’minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo‘lishi mumkin”*⁶. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar yerlari asosan davlat mulki hisoblanganligi sababli, ularning huquqiy rejimini ta’minlashda davlat boshqaruvi organlarining vakolatlari alohida ahamiyatga ega.

Atrof-muhitni muhofaza qilish va yerlardan maqsadli foydalanish sohasidagi boshqaruv tizimi vakolatlar taqsimoti asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasining *“Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”*⁷gi Qonuniga muvofiq, vakolatli organlarning asosiy funksiyalari va funksional farqlari quyidagi tizimli jadvalda aks ettirilgan:

Davlat boshqaruvi organi	Asosiy vakolatlari va huquqiy funksiyalari
Vazirlar Mahkamasi	Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi; tabiiy resurslarning davlat kadastrlari yuritilishi tartibini belgilaydi; favqulodda ekologik vaziyatlarning oldini olish choralari ko‘radi; muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning chegaralarini tasdiqlaydi.
Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi	Sohada bevosita davlat boshqaruvini amalga oshiradi; qonunchilik ijrosi

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [Matn]. Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2023-yil. 112b.

⁷ O‘zbekiston Respublikasining *“Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”*gi qonuni 09.12.1992-yildagi 754-XII-son.



	ustidan davlat ekologik nazoratini olib boradi; chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni muvofiqlashtiradi. Vazirlik hujjatlari barcha davlat organlari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolar uchun majburiydir.
Mahalliy davlat hokimiyati organlari	O‘z hududiy doirasida tabiatni muhofaza qilish yo‘nalishlarini belgilaydi; ob‘ektlarni moddiy-texnik ta‘minlaydi; tabiiy resurslardan foydalanishga ruxsatnomalar beradi; ekologiyaga zarar yetkazayotgan subyektlar faoliyatini to‘xtatish haqida qaror qabul qiladi.

Muhofaza etiladigan hududlarni tashkil etishdan avval, maxsus vakolatli organlar yoki jismoniy va yuridik shaxslarning taklifiga binoan yer maydonlari mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarori bilan zaxiraga olinadi. Ushbu yerlardan o‘z xususiyatlaridan kelib chiqib, qat’iy maqsadli tartibda foydalaniladi va qonun hujjatlarida taqiqlangan faoliyat turlarini yuritishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar toifasining qo‘riqlanishi idoraviy mansubligiga qarab maxsus xizmatlar tomonidan amalga oshiriladi: Milliy bog‘lar Vazirlar Mahkamasi nizomlari asosida, davlat buyurtma qo‘riqxonalari va tabiat yodgorliklari esa yer egalarining o‘zlari tomonidan qo‘riqlanadi. Suv ob‘ektlarining sanitariya muhofaza zonalarini ichki ishlar organlari, kurort va rekreatsiya zonalarini mahalliy hokimliklar, ovchilik va o‘rmon xo‘jaligi hududlarini esa o‘rmon qo‘riqchilari hamda yegerlik xizmatlari nazorat qiladi.



Sohadagi muammo va yechimlar

Bugungi kunda tabiatni muhofaza qilish, sogʻlomlashtirish va rekreatsiya yerlaridan foydalanish amaliyotida bir qator tizimli muammolar koʻzga tashlanmoqda. Huquqiy tahlillar natijasida quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

1. **Noqonuniy qurilishlar:** Yashil hududlar va rekreatsiya zonalarida tegishli ruxsatnomalarsiz yoki maqsadli tayinlovini oʻzgartirgan holda turar-joy hamda tijorat obʻektlarini barpo etish holatlari.
2. **Chiqindilar muammosi:** Muhofaza etiladigan hududlarda hamda ommaviy dam olish maskanlarida ekologik madaniyatning pastligi sababli maishiy va qurilish chiqindilarining tartibsiz joylashtirilishi oqibatida flora va faunaga zarar yetishi.
3. **Suv resurslarining ifloslanishi:** Turistik zonalarda oqova suvlarni tashrif buyuruvchilar tomonidan chiqindilatni toʻgʻridan-toʻgʻri suv obyektlariga tashlab yuborilishi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida ekologik qonunchilikni buzganlik uchun maʼmuriy va jinoiy javobgarlik choralarini kuchaytirish, rekreatsiya zonalarida raqamli monitoring (ekologik nazorat kameralari, dronlar) tizimini joriy etish hamda jamoatchilik ekologik nazoratini huquqiy ragʻbatlantirish mexanizmlarini takomillashtirish lozim.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, tabiatni muhofaza qilish, sogʻlomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga moʻljallangan yerlar Oʻzbekiston Respublikasining umummilliy boyligi hisoblanib, ularning huquqiy rejimini toʻgʻri tashkil etish ekologik muvozanat va barqaror taraqqiyotning garovidir. Mazkur yer toifalarini boshqarish va muhofaza qilish borasidagi qonunchilik bazasini tizimli ravishda



takomillashtirish, vakolatli organlar faoliyatining o‘zaro integratsiyasini ta’minlash hamda qonun ustuvorligiga erishish kelajak avlod uchun toza va sog‘lom atrof-muhitni yetkazishning bosh huquqiy mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda “Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-76-sonli qarori
2. <https://sdgs.un.org/goals>
3. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksi 30.04.1998-yil
4. O‘zbekiston Respublikasining “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonuni, 03.12.2004-y., O‘RQ-710-son.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida” Qonuni 30.08.2001 yildagi 269-II-son
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [Matn]. Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti, 2023-yil. 112b.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonuni 09.12.1992-yildagi 754-XII-son.